



O‘TKIR HOSHIMOV ASARLARIDA SIFATNING LUG’AVIY-MA’NOVIY GURUHLARI TAHLILI

Turayeva Fotima Xayrulla qizi

Termiz davlat universiteti talabasi

Ilmiy rahbar: **Ergasheva D.A**

Annotatsiya: O‘tkir Hoshimovning “Daftar hoshiyasidagi bitiklar “asarida uchraydigan sifat so‘z turkumiga mansub so‘zlar tahlil ostiga olinib, ular sifatning lug‘aviy-ma‘noviy guruhlariga ajratib chiqiladi.

Kalit so‘zlar : Sifat, Sifatning LGM lar tahlili, xususiyat, holat, shakl, rang – tus, mazza ta’‘m, o‘rin, payt sifatleri tahlili.

Sifat asosan predmetning qisman harakatning belgisini bildiruvchi so‘zlardir: qizil qalam, oq kabutar, yaxshi gapirmoq. Boshqa so‘zturkumlari ham belgi ifodalaydi. Ammo sifat barqaror va turg‘un belgi ifodalash jihatidan ulardan ajralib turadi. Masalan, Gul qizil deganda turg‘un (statik) belgi, Gul qizardi deganda esa o‘zgaruvchi (dinamik) namoyon bo‘lgan. Sifat anglatadigan belgiboshqa turkumlar anglatadigan belgidan darajalanish xususiyati bilan farqlanadi. Masalan qizg‘ish-qizil qip-qizil. Boshqa turkum anglatuvchi belgida esa bunday xususiyat yo‘q. Sifat gapda asosan sifatlovchi aiqlovchi, qisman kesim, hol vazifasida keladi. Sifatning lug‘aviy gramatik-ma‘noviy guruhleri



Darslik va qo'llanmalarda sifatning 9 ta lug'aviy- ma'nnaviy guruhlari ajratiladi:

1) *Xususiyat bildiruvchi sifatlar* narsa/mavjudotlarning xarakter xususiyatlarini ifodalashda ko'p qo'llaniladi...Yoqimtoy, badjahil, yaxshi, yomon ,dilkash,muloyim .Xaraker xususiyati ijobiy va salbiy bo'lishi mumkin.

2) *Holat bildiruvchi sifatlar* narsa /mavjudotlarning holat yoki vaziyat ini turg'un belgi sifatida ifodalaydi .Holat ifodalaydigan sifatlar o'z o'rinda yana ichki guruhlariga bo'linadi.

1) tabiiy holat bildiruvchi sifatlar:go'zal ,mo'min ,o'ktam, cho'loq,bukri .

2) ruhiy holat bildiruvchi sifatlar :xafa,g'amgin,ma'yus.

3) iqtisodiy holat bildiruvchi sifatlar:nochor,badavlat,kambag'al.

4) jismoniy holat bildiruvchi sifatlar :bardam ,baquvvat, tetik, yosh .

5) harorat holatni bildiruvchi sifatlar:iliq,issiq, salqin, sovuq.

6) tozalik holatini bildiruvchi sifatlar:toza,ozozda, kir, musaffo.

7) ho'l quruq holatini bildiruvchi sifatlar :ho'l ,quruq, nam, namxush.

8) eskilik,yangilik holatini bildiruvchi sifatlar:yangi,eski, ko'hna,juldur.

9) tinch va notinch holatni bildiruvchi sifatlar: tinch, jimjit, jim, sokin, osuda, osoyishta.

10) yetilganlik holatini bildiruvchi sifatlar:xom ,pishiq, g'o'r.



Shakl bildiruvchi sifatlar bu turdagi sifatlar narsa /predmetlarning tashqi ko'rinishilarni ifodalaydi: novcha, yassi, uzunchoq, yapaloq, aylana.

Rang-tus bildiruvchi sifatlar: oq, qorq, qizil, pushti.

Mazza -ta'm bildiruvchi sifatlar: shirin, achchiq, nordon, taxir, sho'r.

Hid bildiruvchi sifatlar qo'lansa, badbo'y.

O'rin bildiruvchi sifatlar: ichki, tashqi, devoriy, qishloqi.

Payt bildiruvchi sifatlar: kuzgi, yozgi, qishki, ertachi, chillaki, ertapishar. **Eng aqilli jonivor** Dunyoda eng kata **aqilli** jonivor baliq! Birinchidan, saqov. Ikkinchidan muttasil dumini likillatadi (Daftar hoshiyasidagi bitiklar 6-bet) Aqlli -xususiyat bildiruvchi sifat. **Haqiqat**. Shu qadar **shirinki**, totib ko'rging keladi. Shu qadar **achchiqki**, tilingni kuydiradi. (Daftar hoshiyasidagi bitiklar (12-bet) Shirin, achchiq – mazza-ta'm sifati. **Qaldirg'och** E'tibor berganmisiz: qaldirg'ochlar, **noahil faysiz** xonadonga hech qachon in qurmaydi. (Daftar hoshiyasidagi bitiklar 13-bet) Fayzsiz, noahil – tinch va notinch holatni bildiruvchi sifatlar aqlliroqmikan – xususiyatni ifodalaovchi sifatlar. **Atlantika okeani ustida**

Tepada bir ummon, pastda bir ummon,

Ikki dengiz aro kechar lahzalar.

Xayolga tolaman :Men o'zi kimman?

Ojiz va **notavon** zarra notovon zarra... alhazar! (Daftar hoshiyasidagi bitiklar 13-bet) Ojiz, natavon – tabiiy holat bildiruvchi sifatlar. Hushyor bo'ling Ayol sizni qattiq sevsa, hushyor bo'ling. **Otashin** muhabbat- rashkka, rashk-shubhaga, shubha xudbinlikka, xudbinlik-dushmanlikka aylanishi mumkin. (Daftar hoshiyasidagi bitiklar 15-



bet) Otishin-tabiiy holat sifatleri. **Gumroh bandalar** Odamlarga hayronsan.Ota onasi tirikligida ikki og'iz **shirin** so'zni tekinga aytmaydi-da,ular o'lganida keyin ming- ming pul sarflaydi,o'sha so'zlarni qabrtoshga yozdirib qo'yadi. (Daftar hoshiyasidagi bitiklar 16-17-bet) **Shirin- mazza –ta'm bildiruvchi sifatlar.** **Kulgu va yig'i** Kulishni bilmaydigan odam **baxtsiz** odamdir.Yig'lashni bilmaydigan odam esa ikki hissa r. **baxtsizdir.** (Daftar hoshiyasidagi bitiklar 14-bet) **Baxtsiz- tabiiyholat bildiruvchi sifat.** Baxtli va baxtsiz, **Baxtli** odam xudbin bo'ladi :**baxtsizlarga** achinmaydi.**Baxtsiz** odam ham xudbin bo'ladi.**Baxtlilarga** g'ayrligi keladi. (Daftar hoshiyasidagi bitiklar17-bet) **Baxtli,baxtsiz- tabiiy holat bildiruvchi sifatlar.** Xudbin-xususiyat bildiruvchi sifat. **Xudoning qudrati** Tabiat shunaqangi **qudratliki,xohlasa ,gulshanning qoq o'rtasida sassiq alaf o'stiradi.Xohlasa ,botqoqning qoq o'rtasida nilufarni gullatib qo'yadi...** (Daftar hoshiyasidagi bitiklar18-bet) **Qudratli-xususiyat bildiruvchi sifat.** **Sassiq-hid bildiruvchi sifat.**

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Ergasheva D.A. Odil Yoqubov asarlarida inson ruhiy holati ifodalanishining lisoniy manzarasi // Сўз санъати халқаро журнали. – Тошкент, 2020. №1, 2-jild. ISSN: 21819297 Doi Journal 10.26739/2181-9297. – B. 99-103. (10.00.00 № 31)
2. Abuzalova M.Q.Hozirgi o'zbek tili.Morfologiya 1-qism .Mustaqil siz turkumlari (Ma'ruza matnlari).-Buxoro.2003.
3. Bahriddinova B.R.Hozirgi o'zbek tili.Morfemika..Morfologiya. II-qism.-Qarshi .2005.
4. Nurmonov A.,Shahobbiddinova Sh.,Iskandarov Sh va boshqalar .O'zbek tilining nazariy grammatikasi.Morfologiya -T.: Fan,1972.-610 b.